

**«Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va «O‘zbekiston – 2030» strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturida belgilangan chora-tadbirlar ijrosi to‘g‘risida**

**TAHLILY MA'LUMOT**

24.03.2026y. holatiga

t/r	Islohot mazmuni/ Vazifalar	Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari/ amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar
1.	<p><b>Farmonning 16(v)-bandi.</b> Quyidagilar: (v) islohotlar dasturlari ijrosi va belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishilishi uchun mas’ul rahbarlar har chorak yakuni bo‘yicha islohotlarning ijro holati va natijadorligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga axborot berib borsin.</p>		Har chorakda	<p><b>BAJARILMOQDA.</b> Topshiriq ijrosini ta’minlash maqsadida, 2026 yil 23 fevralda «Olmaliq KMK» AJ Boshqaruv raisi rahbarligida kengaytililgan yig‘ilishi o‘tkazildi (2026 yil 26 fevraldagi 20- 1/12-son bayoni).</p>
2.	<p><b>Farmonning 19(g)-bandi.</b> Quyidagilar: (g) davlat hokimiyati organlari, vazirlik va idoralar, mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari «Taraqqiyot strategiyasi» markazi va «Yuksalish» harakatining Davlat dasturi ijrosini o‘rganib borish bo‘yicha faoliyatiga har tomonlama ko‘maklashib borsin.</p>		Har chorakda	<p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 16 fevraldagi PF-21-son hamda PF-22-son Farmonlarida belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirilishini muvofiqlashtirish va nazorat qilish bo‘yicha Boshqaruv raisi boshchiligida ishchi guruhi tuzildi va dasturdagi har bir topshiriqni bajarish vazifalar belgilab olindi. Shu bilan birga, topshiriqlarni ijrosini ta’minlash bo‘yicha yo‘l haritalari va kalendar grafiklari tasdiqlandi, mutasaddi rahbarlarga ko‘rsatmalar berildi va yo‘nalishlari bo‘yicha mas’ulligi belgilandi.</p>
3.	<p><b>Farmonning 22-bandi.</b> Mazkur Farmon ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsan javobgar etib vazirlik va idoralar rahbarlari, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari belgilansin.</p>		Har chorakda	<p>Belgilangan tartibda islohotlarning ijro holati va natijadorligi yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi, «Yuksalish» harakati va «Taraqqiyot strategiyasi» markaziga ma’lumotlar kiritildi (26.03.2026y. 03-26/01-391-son xati).</p>
<p><b>Iqtisodiyotni texnologik va innovatsion o‘sish modeliga o‘tkazish hamda ichki bozorda talabni rag‘batlantirish bo‘yicha ustuvor ISLOHOTLAR DASTURI (2 ilova)</b></p>				
4.	<p><b>6-band.</b> «Invest.gov.uz» platformasini takomillashtirish.</p>	<p>1. ISSV tasdiqlagan shaklga asosan Brownfield/Greenfield loyihalarini «Invest.gov.uz» platformasiga kiritishni ta’minlash.</p>	2026 yil 1 mart	<p><b>BAJARILDI.</b> ISSVga «Olmaliq KMK» AJ bo‘yicha xorijiy investitsiyalarni talab etuvchi Brownfield/ Greenfield, davlat-xususiy sherikchilik hamda xususiylatirish yo‘nalishidagi loyihalar aniqlangan taqdirda vazirlikka</p>

t/r	Islohot mazmuni/ Vazifalar	Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari/ amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar
		<p>2. ISSVga «Invest.gov.uz» platformasini texnik qo‘llab-quvvatlash uchun tizim administratori, axborot xavfsizligi va kontent menejerlari faoliyatini yo‘lga qo‘yish.</p> <p>3. Natija.</p> <p>Xorijiy va mahalliy investorlar uchun mavjud yer maydonlari va bo‘sh turgan binolar haqida tezkor va ishonchli ma‘lumot olish imkoniyati kengayadi.</p> <p>Yagona shakl asosida ma‘lumot kiritilishi loyihalarning xalqaro standartlarga mos kelishini ta‘minlaydi.</p>	<p>2026 yil 1 sentyabr</p> <p>2026 yil 25 dekabr</p>	<p>taqdim etilishi to‘g‘risida axborot berildi (05.03.2026y. 01-0324-son xat).</p> <p>Tegishli axborot va tasdiqlovchi hujjatlar Adliya vazirligiga kiritildi (04.03.2026y. 01-317-son xat).</p> <p><b>BAJARILMOQDA.</b></p> <p>ISSVga «Olmaliq KMK» AJ bo‘yicha xorijiy investitsiyalarni talab etuvchi Brownfield/ Greenfield, davlat-xususiy sherikchilik hamda xususiylatirish yo‘nalishidagi loyihalar aniqlangan taqdirda vazirlikka taqdim etilishi to‘g‘risida axborot berildi (05.03.2026y. 01-0324-son xat).</p>
<p><b>Davlat boshqaruvi va sud-huquq tizimini takomillashtirish, jamiyatda birdamlikni ta‘minlash orqali uni yuksaltirish bo‘yicha ustuvor ISLOHOTLAR DASTURI (5 ilova)</b></p>				
5.	<p><b>8-band.</b></p> <p>Davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya holatlarining oldini olish bo‘yicha yangi tizim joriy etish.</p>	<p>1. 2026 yil davomida «Olmaliq kon-metallurgiya kombinati» AJda komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosar faoliyatini yo‘lga qo‘yish:</p> <p>2. Komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosar faoliyatini samarali tashkil etish bilan bog‘liq tashkiliy-huquqiy masalalarni hal etish.</p> <p>3.natija.</p> <p>Komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosarlar faoliyati yo‘lga qo‘yilishi;</p> <p>korrupsiyaga qarshi kurashish, korrupsiya holatlarining oldini olish va nazorat qilish tizimi mustaqilligi hamda xolislik</p>	<p>2026 yil 25 iyun</p> <p>2026 yil 25 dekabr</p>	<p><b>BAJARILMOQDA.</b></p> <p>“Olmaliq KMK” AJda Boshqaruv raisining komplaens va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘yicha o‘rinbosari lavozimi joriy etildi.</p> <p><i>Ma‘lumot uchun: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Rahbarining 2026 yil 19 yanvardagi tegishli topshirig‘iga muvofiq topshiriq ijrosi bo‘yicha tegishli buyruq tasdiqlandi.</i></p> <p>Shuningdek, jamiyat tashkiliy tuzilmasiga tegishli o‘zgartirishlar kiritildi hamda Kuzatuv kengashi bayoni loyihasi O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida” Qonuniga hamda Kuzatuv kengashi nizomiga muvofiq o‘rnatilgan tartibda “Olmaliq KMK” AJ Kuzatuv kengashi a‘zolariga kelishish uchun yuborildi (2026 yil 24 fevraldagi AX-01-51-son xat).</p>

t/r	Islohot mazmuni/ Vazifalar	Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari/ amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar
		darajasini oshirishga erishilishi yuzasidan tegishli axborot materillarini tayyorlash va Prezident Administratsiyasi Komplaens xizmatiga, «Olmaliq KMK»AJ Kuzatuv kengashiga, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga hamda Hisob palatasiga taqdim etish.		Kuzatuv kengashi bayoni tasdiqlangandan so‘ng Jamiyat tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash masalasi aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yigilishi kun tartibiga kiritilishi ta‘minlanadi.
<b>«O‘zbekiston–2030» strategiyasini «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi bo‘yicha AMALIY TADBIRLAR REJASI (6 ilova)</b>				
<b>II. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH ORQALI AHOLI FAROVONLIGINI TA‘MINLASH</b>				
<b>48-maqсад: Sanoatning «drayver» sohalarini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to‘liq ishga solish</b>				
6.	<p><b>110-band.</b> “Olmaliq KMK” AJ asosiy ishlab chiqarish quvvatlarini qayta qurish va barqarorlashtirish dasturi” investitsiya loyihasi doirasida yillik 180 ming tonna sulfat kislotasi ishlab chiqarish quvvatiga ega 6-son sulfat kislotasi sexini to‘liq ishga tushirish.</p>	<p>1. 6-son sulfat kislotasi sexi uchun asosiy texnologik uskunalarni o‘rnatish va montaj qilish.</p> <p>2. Qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazish.</p> <p>3. Asosiy texnologik uskunalarda sinov ishlarini o‘tkazish.</p>	<p>2026 yil 25 aprel</p> <p>2026 yil 25 iyul</p> <p>2026 yil 25 avgust</p>	<p><b>BAJARILMOQDA.</b> Obyektda yer ishlari, temir poydevor quyish ishlari yakunlandi. Shu bilan birga, quruq elektrofiltr uskunalarini yig‘ish ishlari yakunlandi. Estakadada metallkonstruksiya yig‘ish ishlari 100% amalga oshirildi. Asosiy podstansiyaning qurilishi bo‘yicha 2-bosqich qurilish ishlari, truboprovod o‘tkazish, montaj qilish ishlari 1-, 2-, 3-qavati yakunlandi va pardoqlash hamda sex hududini ko‘kalamzorlashtirish ishlari davom etmoqda.</p> <p><b>BAJARILMOQDA.</b> 4- va 5-seksiyalardagi sanitariya quvurlari montaj qilindi, 1- va 2-konverterlar yig‘ilishi yakunlandi, 1- va 2-konverterlarning issiqlik izolyatsiyasi ishlari bajarildi, gaz yo‘llarini issiqlik izolyatsiya qilish ishlari davom etmoqda.</p> <p><b>BAJARILMOQDA.</b> «Metso:Outotec GmbH» kompaniyasi talablariga muvofiq quvurlar montaj qilindi va quvurlarni sinovdan o‘tkazish ishlari amalga oshirilmoqda. Nam elektrofiltrlarni bog‘lash ishlari bajarilgan.</p> <p>Asosiy havoni haydash moslamasi (nagnetatel) bo‘yicha montaj ishlari elektr montaj ishlari yakunlanib, elektr ta‘minoti berilgunga qadar to‘xtatilgan.</p> <p><b>BAJARILMOQDA.</b> Elektr montaj ishlari hamda avtomatlashtirish ishlari olib borilmoqda.</p> <p>Barcha bo‘limlarda tashqi yoritish bo‘yicha montaj ishlari bajarildi. Quruq elektrofiltr bo‘limida kabel yotqizish ishlari,</p>

t/r	Islohot mazmuni/ Vazifalar	Islohotni amalga oshirish shakli va mexanizmlari/ amaliy chora-tadbirlar	Ijro muddati	Amalga oshirilgan ishlar
		4. Yillik 180 ming tonna sulfat kislotasi ishlab chiqarish quvvatiga ega 6-son sulfat kislotasi sexini foydalanishga topshirish va ishlab chiqarishni boshlash.	2026 yil 25 sentyabr	ichki yoritish kabellarini montaj qilish, MSS, UA-11, UA-14, UA-15 binolarida havo kanallarini o'rnatish ishlari yakunlandi.
<b>IV. QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASH, XALQ XIZMATIDAGI DAVLAT BOSHQARUVINI TASHKIL ETISH</b>				
<b>89-maqсад: Korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish ishlarini jadal davom ettirish</b>				
7.	<b>280-band.</b> Davlat organlari va tashkilotlarida ichki hujjat aylanmalarini tizimli va qonuniy tashkil etish choralarini ko'rish.	2. Davlat organlari va tashkilotlari tomonidan barcha turdagi ichki buyruq va qarorlarni (shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni egasizlantirilgan tarzda), O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror, Farmon va farmoyishlari bilan tashkil etilgan barcha komissiya va kengashlarning bayonnomalarini qog'oz shaklda qabul qilishni bekor qilib, majburiy tartibda «E-qaror» tizimi orqali qabul qilish amaliyotini yo'lga qo'yish (qonuchilikka muvofiq davlat siri bilan bog'liq masalalaridan tashqari).	2026 yil 1 aprel	<b>BAJARILMOQDA.</b> OKMKning amaldagi axborot tizimini «E-qaror» tizimiga integratsiya ishlari amalga oshirilmoqda.